

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING AXLOQIY DUNYOQARASHINI AKSOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

**Shonazarova Sevara Rashidovna**

Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashini shakllantirishda aksologik yondashuvning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Aksiologiya-qadriyatlar haqidagi fan sifatida, o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning nazariy va amaliy asoslarini ta'minlaydi. Shuningdek, ma'naviy va axloqiy dunyoqarashni shakllantirish orqali o'quvchilarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy faolligi va mas'uliyat hissini kuchaytirishning dolzarbliги ta'kidlanadi. Ushbu maqola pedagoglar va tarbiyachilar uchun nazariy va metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

**Tayanch so'zlar:** Aksiologiya, ma'naviyat, axloq, qadriyatlar, tarbiyaviy yondashuv, shaxs rivoji, dunyoqarash, ta'lif va tarbiya, intellektual rivojlanish,

**Kirish.** Ma'naviy taraqqiyoti va barqarorligi yosh avlodning tarbiyasiga, xususan, ularning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashining shakllanishiga bevosita bog'liq. Hozirgi globallashuv sharoitida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asosida tarbiyalash, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Aksologik yondashuv bu jarayonda muhim o'rinn tutadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning qadriyatlari tizimiga ega bo'lishi, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini anglashida samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqola o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda aksologik yondashuvning ahamiyati va usullarini tahlil qilishga qaratilgan [1;146-b.].

Jamiyatning kelajagi yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashiga bog'liq. O'quvchilarning insoniy fazilatlarni to'g'ri qabul qilishi, qadriyatlar tizimida mustahkam o'rin egallashi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun ularning tarbiyasiga ilmiy asoslangan yondashuv muhimdir. Shu ma'noda, aksologik (qadriyatlar haqidagi ta'lilot) yondashuv asosida ularning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Aksologik yondashuv qadriyatlar tizimini asos qilib oladi. Bu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirish, ularni tahlil qilishga va amalda qo'llashga o'rgatish kerak. O'quvchilar uchun shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni aniqlash hamda ularni anglash tarbiyaviy jarayonning markaziy vazifalaridan biridir[2;46-b.].

Ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashning tarkibiy qismlari.

1. Ma'naviy qadriyatlar: Odamiylik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, halollik, mehr-muruvvat kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi.
2. Axloqiy normalar: Xulq-atvor qoidalari, shaxsning o'zini va boshqalarni hurmat qilishi, adolat va me'yor tamoyillariga amal qilish.
3. Intellektual rivojlanish: Falsafiy va axloqiy muammolarni tushunish va hal qilish qobiliyati.

O'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashni shakllantirishning usullari.

1. Dialog asosida o'qitish: O'quvchilarni axloqiy masalalar bo'yicha fikr bildirishga undash. Ularning nuqtai nazarini hurmat qilish va keng fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
2. O'rnak ko'rsatish usuli: O'qituvchi va ota-onalar tomonidan namuna ko'rsatish, ijobiy qadriyatlarni hayotiy misollar bilan tushuntirish.

3. Badiiy asarlar orqali ta'lism: Adabiyot va san'at asarlari orqali ma'naviy va axloqiy masalalarni muhokama qilish. Masalan, O'zbekiston adabiyotining buyuk namoyandalari asarlaridan foydalangan holda ulug' qadriyatlarni tushuntirish.
4. Tajriba va amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, ularning jamiyatga foyda keltiruvchi ishlarda ishtirokini ta'minlash.

Aksologik yondashuvning afzallikkabi. Shaxsiy va ijtimoiy moslashuvni oshiradi: O'quvchilar axloqiy qadriyatlarni kundalik hayotda qo'llashni o'rGANADILAR. Mas'uliyat hissini rivojlantiradi: O'quvchilar o'z xatti-harakatlariga javobgarlikni his qiladilar. Jamiyatga integratsiyani ta'minlaydi: Yoshlar o'zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his qilib, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradilar. [3;61-b.]

O'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashi shaxsning ichki fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni oshirish va jamiyatga foydali shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etishda aksologik yondashuvning o'rni alohida e'tiborni talab qiladi. Aksologik yondashuv, avvalo, o'quvchilarga insoniy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Aksologik yondashuv qadriyatlari tizimini ta'lism-tarbiya jarayonining markaziga qo'yadi. Qadriyatlari jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlarni belgilab beradi. Shu asosda aksologik yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarning ichki dunyosida ushbu qadriyatlarni shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishdir [4;14-b.]

O'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashini shakllantirishda quyidagi tarkibiy qismlarga alohida e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy qadriyatlari: Bu shaxsning vatanparvarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi.

2. Axloqiy normalar: Shaxsning jamiyatdagi xulq-atvor qoidalari, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, adolat va halollik tamoyillariga rioya qilishni nazarda tutadi.

3. Ijodiy va intellektual rivojlanish: Axloqiy masalalarni tahlil qilish, fikr yuritish va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. [6;46-b.]

Aksologik yondashuv asosida shakllantirilgan ma'naviy-ahloqiy dunyoqarash quyidagi natijalarga olib keladi:

O'quvchilar insoniy fazilatlarni qadrlashni o'rganadilar.

Jamiyatda to'g'ri xulq-atvor va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qiladilar.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab, ularga amal qilishga intiladilar.

Shaxsiy mas'uliyatni his qiladigan, barkamol shaxs sifatida shakllanadilar.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida aksiologik yondashuv muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv o'quvchilarga hayotning ma'nosini anglashda, insoniy fazilatlarni qadriga yetishda yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashib, ularga to'g'ri qadriyatlarni singdirishlari zarur. Bunday yondashuv yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog - o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - Toshkent: Iste'dod, 2008. - 180 b.

2. **Izzetova E., Po'latova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012.**

-340 b.

3. Yuldasheva N.S. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2022. - 121 b.

4. Temirova N.E. Qadriyatlar va bolalar kamoloti. -T: Falsafa va huquq instituti. 2008. B.27.

5. Tillayeva G., Yusupov Q., Boboev N., Xalidbekova F., Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: " Falsafa va xusnun" 2009. B.16.

6. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: "O'zbekiston", 1998.- 236 b.

7. Tulenova K., Valiyeva S. Qadriyatlar falsafasi. - T.: "TDPU", 2007. -

256 b.

8. Ушинский К.Д. Избранные пед. Соч. В 2-х т.т.- М., 1974. -С. 98.